

**MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIDA
MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINING O’RNI**

**Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrası
o‘qituvchisi Shukurova Ilminur,
Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich
talabasi Alimjonova Mahfuzaxon**

Annotatsiya. Azaldan-azal tarbiya muhim masala bo‘lib kelgan. Ushbu maqolada bola rivojlanishida maktabgacha ta’lim muassasalarining ahamiyati, yosh avlodga qaratilgan e’tibor, ularning ham ma’nan, ham jismonan sog‘lom bo‘lib ulg‘ayishlari uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida yaratilayotgan shart-sharoitlar hamda ushbu muassasalarda olib boriladigan mashg‘ulotlar va ularning bola rivojidagi o‘rni to‘g‘risida fikrlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: tarbiya, maktabgacha ta’lim muassasalari, mashg‘ulot, faoliyat, davlat talablari, qoniqish hissi, shaxsiy gigiyena, qobiliyat, rivojlantiruvchi markazlar, 5 tashabbus, tarbiyalanuvchi, bog‘cha yoshi, xarakter, guruhlar.

Bugun ilm-fan va ta’lim izchil rivojlanib borayotgan bir davrda hech shak-shubhasiz tarbiya ta’limning asosida turishi shartdir. Shunday ekan, ilm-fan ta’lim-tarbiya asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, har bir pedagog, muallim va ustozning ta’lim berishdan maqsadi kelajagi porloq, Vatan va el-yurt xizmatida turadigan halol kadrlarni tarbiyalash bo‘lsagina, bunday ta’lim-tarbiya o‘z samarasini bermay qolmaydi. Ya’ni, bugungi kunning o‘qituvchi va muallimi o‘zi ta’lim berayotgan shaxsga fidoyilik bilan ta’lim berishi, qolaversa jonkuyar tarbiyachi bo‘lishi shart.

“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” - deya Abdulla Avloniy bobomiz ham ta’kidlab o‘tganlar. Bundan tashqari ko‘plab olim-u fazalolarimiz, shu jumladan Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida namoyon bo‘lgan tarbiyaga oid qarashlari fikrimiz isbotidir. Farzandlar kelajagi hamda tarbiyasiga nafaqat olimlar, farzandning oila a’zolari, qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar shular bilan birgalikda davlatimiz rahbarlari ham befarq emaslar. “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” naqliga amal qilgan holda mustaqillikdan so‘ng bolalarimizning yaxshi yashashi, yaxshi tarbiyalanishi va kamol topishini ko‘zlab, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga katta e’tibor qaratilmoqda. Nafaqat davlat tashkilotlari balki-davlat xususiy sherikchilik asosida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etildi. Bularning barchasi kelajak avlod tarbiyasini o‘z zimmasiga oladilar. So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari qamrovi keskin darajada ortdi. Masalan: 2023 yilga kelib 2017 yilga nisbatan 27.7%, 2 barobarga ya’ni 71.8% ga ortdi(4). Barcha bolalar cheksiz imkoniyatlarga ega va har bir bola este’dodlidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolani ham ma’nan, ham ruhan va jismonan yetuk bo‘lib shakllanishi uchun katta ahamiyatga egadir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uzluksiz ta’limning poydevori. Bolaning asosiy faoliyati bu-o‘yin faoliyatidir. O‘yin faoliyati aslida nima uchun kerak? Bola ulg‘ayar ekan uning kuchiga kuch, energiyasiga energiya qo‘shilib boradi. Bolajonlarimiz bu energiyani faqatgina o‘yin orqali sarflay oladilar va ayniqsa ularning bu faoliyati do‘stlar va tengdoshlari davrasida bo‘lishi maqsadga muvofiq. Ayni shu jihatdan ham farzandlarimizni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga ishonib topshirganimiz ma’qul. Yana shuni ham aytib o‘tishimiz kerakki, turli xildagi gadjet va axborot tarqatuvchi

vositalarning farzandlarimizga naqadar zararli ekanligini barcha ota-ona yaxshi biladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ushbu vositalardan uzoqlashgan holda erkin mashg’ulotlar ya’ni, o’yin faoliyati, mehnat faoliyati, bilim olish, tarbiya jarayonlari olib boriladi. Sog’lom turmush tarzini belgilab beradigan o’z yoshiga mos rejim asosida ovqatlanish jarayonlari esa ularni jismonan sog’lom bo’lib rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Mashhur rus pedagogi Lestgaftning fikricha “Insonning bog’cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki bu davrda bolalar harakter hislarining namunalari shakllanib, ahloqiy harakterning asoslari yuzaga keladi”(1) deydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga odob-ahloq qoidalari, tartib intizom, shaxsiy gigiyena, o’z majburiyatlari va burchlari, kelajakdagi orzu-umidlari, do’st tushunchasi, vatanga muhabbat, xato qilganda aybdorlik hissi, orzu-istaklari yo’lida maqsad qo’yish, ustoz va shogird tushunchalari keng qamrovda o’rganiladi va bilimlar beriladi.

Bog’cha yoshidagi bolalarning qiziqishlari va intilishlari juda tez sur’atlarda o’zgarib boradi. Bog’chada tarbiyalanayotgan bola turli xil faoliyatlar natijasida o’z qirralarini ochib boradilar va o’zidan qoniqish hissini tuyadi (1).

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yana bir yaxshi tomoni shundan iboratki, u yakka tartibda ishlash bilan ham shug’ullanadi. Sog’ligida muammolari bor, alohida ta’lim olishga ehtiyojmand bola bilan individual tarzda shug’ullanadilar. Bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi kun tartibi va o’quv mashg’ulotlari ham davlat nazorati ostidadir. Ular uchun maxsus dasturlar, masalan “Bolajon” davlat dasturi, “Ilk qadam” davlat dasturi va guruhlariga mos mashg’ulotlar hamda mashg’ulotning davomiylik vaqti ishlab chiqilgan(4). Prezidentimiz ta’kidlagan besh tashabbus hamda faoliyat markazlari ham bolalar tarbiyasi va kelajagini o’ylab qilingan islohatlardir. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosini ta’minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish shuningdek maktabgacha ta’lim tizimining normativ huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida 2020 yil 22 dekabr kuni O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to’g’risida”gi 802-sonli qarori qabul qilindi. Ilk va maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni rivojlantirish bo’yicha davlat talablariga muvofiq “Ilk qadam” davlat dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur doirasida har bir maktabgacha ta’lim tashkilotlarida beshta rivojlanish markazlari tashkil etilgan bo’lib, bolalar “Qurish-yasash”, “Til va nutq”, “Matematika” “San’at-ilm fan”, “Tabiat syujetli ro’lli o’yinlar” kabi yo’nalishlarda tahsil oladilar(5). Ushbu burchaklardan foydalanib, ular milliyligimizni unutmagan holda turli xil sahna o’yinlarini ijro etadilar, narsa va buyumlar yasaydilar, o’z nutqlari ustida ishlaydilar va tabiatning bebaho ne’mat ekanligi to’g’risida yetarlicha ma’lumotlar oladilar. “Matematika” hamda “Badiiy adabiyot” mashg’ulotlarida aqliy darajalari o’sib boradi, xotirasi mustahkamlanadi, o’z fikrini erkin bayon eta olishga o’rganadilar. O’z qiziqishlariga qarab kasb yoki hunarga ham yo’naltiriladi. Maktabga tayyorlov guruhlarida esa bolalarni maktabda o’qishlari uchun dastlabki bilimlar berib boriladi. Bog’chada bolaning yosh hususiyatlariga qarab, guruhlariga bo’linadi.

Biz erkin va farovon vatanda yashar ekanmiz, Vatanga munosib farzand bo’lish va munosib farzandlarni tarbiyalash har birimizning burchimizdir.

Xulosa. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga berilgan imkoniyatlar hamda mahalla va oila hamkorligi, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va ota-ona hamkorligini amalga oshirgan holda ish ko’rilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu muassasalardagi faoliyat jarayonlari, mashg’ulotlar rejasi, bolaning bilim darajasini belgilash uchun bolalar xaritasini yuritish va shaxsiy gigiyenaga qo’yilgan talablar maktabgacha ta’lim muassasalari yutuqlaridandir. Bu esa maktabgacha ta’lim tashkilotlarining bolalar hayotidagi o’rni beqiyos ekanligini belgilab beradi.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xaydarov F.I., Xalilova N. “Umumiy psixologiya”. T.: “Fan va texnologiyalar” markazining bosmaxonasi : 2009.
2. E.G‘oziyev “Ontogenez psixologiyasi”, “Noshir”, Toshkent 20103. D.Asqarova “Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi” Toshkent-2020
4. F.Qodirova, Sh. Toshpo‘latova, N. Qayumova, M.A’zamova “Maktabgacha pedagogika”T . “Tafakkur” 2019.
5. Sherbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. Toshkent, 1991.
6. Shukurova, I. (2024). Psychological development of social intelligence in adolescence. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(1), 65-69.